Improving the Methodology of Econometric Analysis of the Efficiency of Financial Activity	
of Agricultural Agroclusters of Uzbekistan.....	1108
Ochilov Ilhom Sayitkulovich	
O'zbekistonda "Yashil" iqtisodiyotga o'tish va "Uglerod neytralligiga erishish" strategiyalarining ahamiyati	1116
Pulatov Dilshod Haqberdiyevich, Qulliyev Ulug'bek Mirzayevich,	
Mamataliyev G'ayrat Chori o'g'li, Bazarov Shodi Abdirahmonovich	
Oziq-ovqat mahsulotlari brend qiymatini oshirishda marketing strategiyalari.....	1123
Xodjiyev Ibroxim Ikramovich	
Актуальные вопросы укрепления доверия населения к банковской системы Республики Узбекистан	1129
Рузибоеva Нилуфар Тулкин кизи	
Hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosiblikni kamaytirish uchun mintaqaviy siyosat	
vositalarining xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	1135
Normurodov Alibek Anvar o'g'li	
Mintaqa korxonalarining rivojlanish potensialini shakllantirishda innovatsion	
marketingning o'rni va mohiyati	1142
Axmedov Alim Babaniyazovich	
O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarini tokomillashtirish yo'llari.....	1146
Samandarova Dilfuza Mansurovna	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida ishsizlikning iqtisodiy oqibatlari: mavjud muammolar va yechimlar.....	1153
Fatilloyev Farrux Farhod o'g'li	
O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi tarmog'iga ta'sir qiluvchi ko'rsatkichlarning	
iqtisodiy-statistik tahlili.....	1158
Zakirova Umida Maxamadaminovna	
Banklar tomonidan muammoli kreditlar bilan ishslash samaradorligini oshirish yo'llari	
("Agrobank" ATB misoldi).....	1167
Yusufov Xurshidjon Sharifovich	
Namangan viloyatida don va don mahsulotlari narxini shakllanishining bozor tadqiqoti.....	1172
Bahriiddinov Jahongirbek Ravshanjon o'g'li	



O'zbekiston Respublikasi va xorijda tog' turizmini rivojlantirish omillarini qiyosiy baholash	1177
Mavlanov G'olibjon Muxammad o'g'li	
Improving The Effective Use Of Local Taxes And Levies In Tashkent City	1182
Shahzad Zokhidov	
Совершенствование методологии механизмов налогообложения ресурсного налога	1186
Муҳиддинов Талат Шайдулло угли	
Tadbirkorlik faoliyatida investitsiya muhitining xususiyatlari va chet el kapitalining jozibadorligi.....	1189
I. M. Kamoliddinov, To'khtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li	
Kichik biznes tarmoqlariga investitsiyalarni jalb etish xususiyatlari.....	1194
Abdug'aniyev Murodjon Shavkat o'g'li	
Inson resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish orqali iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish.....	1199
Xodjamov Asliddin O'ktam o'g'li	
Organik qishloq xo'jaligiga o'tishning rivojlanayotgan mamlakatlardagi iqtisodiy va ekologik afzallikkabi.....	1203
Ahrorov Farhod Baxriddinovich	
Korxonalarda uzumchilik mahsulotlarni ishlab chiqarishda strategik boshqarishda mintaqaviy klaster modellashtirishdan foydalanish.....	1208
Muhitdinov Asror Akobirovich	
Qashqadaryo viloyatida ishsizlik darajasini istiqbolda kamaytirish ssenariylari	1213
Djumayev Zayniddin Ahmedovich, Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li	
Kam ta'minlangan oilalarda tadbirkorlik faoliyatini o'ziga xos yo'llari va imkoniyatlari	1219
Tursunov Nozimjon Nosirovich	
Korxonalar samaradorligini oshirishda soliqlar va soliq siyosatining ahamiyati.....	1223
Saida Yuldasheva	
The Contribution of Ecotourism in Developing Gdp in Uzbekistan	1227
Saidova Dildora Nurmatovna, Umarov Husanboy Bahromjon o'g'li, Xolyigitov Umidjon Alijon o'g'li	
Mehmonxonalar faoliyatini moliyalashtirish imkoniyatlarini oshirishda turizmnинг о'rni	1231
Abduraxmanova Ziyoda Abdullayevna	
O'zbekistonda tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etilishi va undagi asosiy o'zgarishlar tahlili.....	1237
Normurzayev Umid Xolmurzayevich	
Tog' va tog'oldi hududlari qishloq xo'jaligini ixtisoslashtirish va rivojlantirish yo'llari.....	1245
Abdulxayeva Gulshan Maxmudovna	
Правовые основы маркетинговых стратегий акционерных обществ в Республике Узбекистан	1250
Эркинов Шахзод Баходир угли	
O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik subyektlarining yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish hisobiga budjet daromadlari barqarorligini baholash amaliyoti.....	1254
Ikramov Ravshan Amanbayevich	



O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING BARQARORLIK REYTINGINI JORIY ETILISHI VA UNDAGI ASOSIY O'ZGARISHLAR TAHLILI

UDK: 336.221(575.172)

Normurzayev Umid Xolmurzayevich

DSc, YSTBI Davlat soliq bosh inspektori

Annotatsiya: O'zbekistonda tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etilishi soliq qonunchilik hujjatlariga kiritilgan asosiy o'zgarish va soliq imtiyozlari berish tartibini takomillashtirish ularga yangicha yondashuvlarni joriy etish orqali bozor xizmatlari hajmini oshirish, aholiga yangi ish o'rinnarini yaratish imkoniyatlari kengaytirish muhum vazifalardan biri hisoblanadi. Shuningdek, 2023-yil 18-avgust kuni o'tkazilgan Prezidentining tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti doirasida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlash, shuningdek, soliqlarni o'z vaqtida to'lab, qonunchilik talablariga amal qilgan holda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlariga yanada qulay shart-sharoitlar yaratish va ularni rag'batlantirish maqsadida tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etilishi hamda soliq tizimida amalga oshirilayotgan ayrim muhim islohotlar o'rganilib, xorij tajribasi, mamlakatimizda uni qo'llash bo'yicha ilmiy-amaliy xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: barqarorlik reytingi, tadbirkorlik subyektlari, budget siyosati, inqiroz, budget, soliq ma'murchiligi, tadbirkorlik subyektlari, soliq hisoboti, soliq tushumlari, soliq imtiyozlari, soliq, soliq stavkasi, preferensiyalar.

Abstract: The introduction of the sustainability rating of economic entities in Uzbekistan is one of the important tasks of the main changes made to tax legislation and improving the procedure for granting tax benefits by introducing new approaches to them, increasing the volume of market services, expanding opportunities for creating new jobs for the population. Also, in order to ensure the implementation of the established priorities within the framework of the open dialogue between the President and entrepreneurs, held on August 18, 2023, as well as to create more favorable conditions for business entities operating in accordance with legal requirements by paying taxes on time, and to encourage them by introducing a sustainability rating of business entities.

Key words: stability rating, business entities, fiscal policy, crisis, Budget, Tax administration, business entities, tax reporting, tax revenues, tax benefits, taxation, tax rate, preferences.

Аннотация: Внедрение рейтинга устойчивости хозяйствующих субъектов в Узбекистане является одной из важных задач основных изменений, внесенных в налоговое законодательство, и совершенствования процедуры предоставления налоговых льгот путем внедрения новых подходов к ним, увеличения объема рыночных услуг, расширения возможностей для создания новых рабочих мест для населения. Также, в целях обеспечения реализации установленных приоритетов в рамках открытого диалога президента с предпринимателями, состоявшегося 18 августа 2023 года, а также создания более благоприятных условий для субъектов предпринимательства, осуществляющих свою деятельность в соответствии с требованиями законодательства, путем своевременной уплаты налогов, и для поощрять их, внедряя рейтинг устойчивости хозяйствующих субъектов.

Ключевые слова: рейтинг стабильности, хозяйствующие субъекты, бюджетная политика, кризис, Бюджет, Налоговое администрирование, хозяйствующие субъекты, налоговая отчетность, налоговые поступления, налоговые льготы, налогообложение, налоговая ставка, преференции.

KIRISH

Mamlakatimiz iqtisodiyotining barqarorligini ta'minlashda iqtisodiy siyosatining eng muhim elementlaridan biri – soliq siyosatini yanada liberallashtirish, soliqqa tortish tartibini soddalashtirish, soliq yukini pasaytirish, xo'jalik subyektlarining huquq va erkinliklarini himoya qilishni amalga oshirish hisoblanadi. Shuningdek, tadbirkorlik subyektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash hamda ularga subsidiyalar, imtiyozlar va preferensiyalarini taqdim etish tartiblarini yanada takomillashtirish yuzasidan bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda.



Bundan tashqari, O'zbekiston iqtisodiyoti o'sib borayotgan, ichki va xorijiy investitsiyalarni jalb etish istagida bo'lgan mamlakat sifatida soliq tizimini isloh qilish muhimligini e'tirof etdi. Ushbu islohotlar nafaqat daromadlarni yig'ishni kuchaytirishga, balki biznesning o'sishi, innovatsiyalar va barqaror rivojlanish uchun qulay muhit yaratishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR SHARHI

Jo'rayev (2005) fikricha, g'arb iqtisodchilari soliq siyosati mustaqil tushuncha hisoblanmaydi. Ular soliq siyosati tushunchasiga fiskal siyosat tushunchasi orqali yondoshadilar. Fiskal siyosat esa davlatning o'z daromadlari va xarajatlari bo'yicha qaror qabul qilishi bo'lib hisoblanadi - deb ta'kidlashadi.

Kene (1960), ingliz iqtisodchisi Keyns (1993) va boshqalarning ilmiy qarashlarida muhim o'rin tutib kelgan. Ular davlat iqtisodiyotni tartiblashda soliq siyosatini yuritishning turli xil uslublari va yondoshuvlari haqida ko'plab bahsler yuritgan, soliq siyosatining bosh maqsadi nimadan iborat bo'lishi lozimligi ko'rsatib berishda, ko'proq, soliqlarni undirish masalalariga alohida e'tibor qaratgani.

Bayborodina (2010) "soliq islohotlari – soliq tizimini keng ko'lamli qayta qurish va uni boshqarish mexanizmini o'zgartirish asosida soliq munosabatlarining cheklangan yoki tubdan o'zgarishi sifatida" ta'riflaydi.

Mayburov (2007) "soliq islohoti soliq tizimini tubdan o'zgartirishni davlat soliq siyosatining yangi mazmu-niga moslashtirish" deb ta'kidlaydi.

Bogatirevaning (2014) fikricha, "soliq islohoti bu davlat soliq tizimidagi qonuniy ravishda belgilangan o'zgarish, bu davlat soliq siyosati strategiyasini o'zgartirishga asoslanadi. Shunday qilib, soliq siyosati taktikasining o'zgarishi soliq islohotiga olib kelmaydi. Faqat soliq tizimiga tegishli amaldagi qonunchilikdagi o'zgartish va qo'shimchalar sifatida ko'rib chiqiladi. Soliq siyosati strategiyasidagi o'zgarishlar mamlakatda soliq islohotlarini amalga oshirish uchun asosdir.

Dementeva (1689) soliq siyosatini davlat iqtisodiy siyosatining in'ikosi ekanligini, u mustaqil ahamiyatga egaligi va soliqlarning ilmiy nazariyasiga asoslanishi lozimligini ta'kidlaydi. "Amalga oshirilayotgan soliq siyosatining natijalari ko'p jihatdan davlat o'z iqtisodiy siyosatiga qanday tuzatishlar kiritishga majbur ekanligini, soliq tizimini qanday qurish kerakligini belgilaydi".

Karp (2001) Soliq siyosati davlatning o'rta va uzoq muddatli istiqboldagi umumiy moliyaviy siyosatining tarkibiy qismi bo'lib, soliq sohasidagi davlat faoliyati konsepsiysi, soliq mexanizmi, soliq tizimini boshqarish kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi.

Petrunin, Panov, Logunovalar (1995) esa, soliq siyosati va uning strategik mazmunini "soliq qonunchilikdagi korxonalarga soliq to'lashdan qochish imkonini beruvchi bo'shlqlarni aniqlashdan iborat" degan fikri ilgari suradi.

Aronov, Kashinlar (2007) o'zining tadqiqotida yesa, soliqlar va boshqa majburiy to'lov larning xorij va Rossiya Federatsiyasida undirish mexanizmini o'rgangan holda soliq to'lashdan bosh tortgan soliq to'lovchilar bilan ishslash siyosati, ularning huquq va majburiyatları, kelgusida har bir soliq to'lovchi o'z xohishi bilan soliq to'lash majburiyati bo'yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishgan hamda ushbu tavsiyalarni soliq va boshqa majburiy to'lov larni undirish sohasida qo'llab uni isbotlashgan va bir qator amaliy choralarini amalga oshirishgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada qiyosiy tahlil hamda induksiya va deduksiya baholash usullaridan foydalanildi. Qiyosiy usuldan foydalanilib, tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytinginiga doir ma'lumotlar va ularni tahlillar amalga oshirilib ilmiy xulosalar berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-yanvardagi "Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-39-sonli qarori imzolandi. Mazkur qaror 2023-yil 18-avgust kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti doirasida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlash, shuningdek, soliqlarni o'z vaqtida to'lab, qonunchilik talablariga amal qilgan holda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlariga yanada qulay shart-sharoitlar yaratish va ularni rag'bat-lantirish maqsadida qabul qilindi.

Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi xorijiy davlatlarda qanay yo'lga qo'yilgan shuni o'rganib chiqsak. Xususan, Qozog'iston Respublikasi tajribasi quydagicha ishonchli hamkorlar reyestrida quydagilar nazarda tutilgan.

Reyestrni yuritilishidan ko'zlangan maqsad:

- Mahalliy va xorijiy tadbirkorlik subyektlarini mahalliy tadbirkorlik subyektlari orasidan hamkorlarni tanlash uchun zarur ma'lumotlar bilan ta'minlash orqali tadbirkorlik faoliyatini, shu jumladan tashqi iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish;



- Ishlab chiqarilayotgan mahalliy mahsulotlar, ishlar va xizmatlarning raqobatdoshligini oshirishga ko'maklashish;
- Ichki bozorda va xorijda mahalliy tadbirkorlik subyektlariga ishonchni oshirish.

Reyestrga to'liq va ishonchli ma'lumotlarni taqdim etgan hamda mazkur Nizomda belgilangan mezonlarga javob beradigan barcha mulkchilik shaklidagi va tashkiliy-huquqiy shakldagi tadbirkorlik subyektlari kiritiladi. Shuningdek, tadbirkorlik subyektlarini reyestrga kiritish mezonlari mazkur nizomning ishonchlilik darajasini baholash metodikasi bilan belgilanadi.

Agar ushbu Nizomda belgilangan mezonlar bajarilgan bo'lsa, tadbirkorlik subyektiga "Atameken" Qozog'iston Respublikasi milliy palatasi a'zolariga ko'rsatiladigan pullik xizmatlar ro'yxati va qiymati 21-bandiga muvofiq pullik asosda tegishli sertifikat beriladi. Xizmat narxi bazaviy miqdorning 20 barobariga teng bo'ladi.

Rossiya Federatsiyasi tajribasi esa iqtisodiy va moliyaviy imkoniyatlari ishonchli bo'lgan tadbirkorlik subyektlarining nodavlat reyestri yuritiladi. Mazkur reyestr 2023-yil 25-avgustda 51-sonli Rossiya Savdo-sanoat palatasi raisi Buyrug'i bilan tasdiqlangan.

Reyestrga kiritilish shartlari:

- o'z faoliyatini so'nggi 3 yildan beri davom ettirayotgan bo'lish;
- tashkilot haqida ishonchli ma'lumotlarni taqdim etish;
- qayta tashkil etish, tugatish va bankrotlik holatida bo'lmaslik;
- soliqlar, yig'imlar, va boshqa to'lovlardan qarzdorlikni bo'lmasligi;
- insofsiz yetkazib beruvchilar hamda pudratchilar reyestrda bo'lmaslik;
- yil yakuniga ko'ra, tashkilotning moliyaviy ahvoli "SSS – qoniqarsiz" holatda bo'lmasligi;
- reyestrga kiritilish uchun to'lanadigan bir martalik to'lovni to'lagan bo'lishi kerak.

Belorusiya Respublikasi tajribasida ishonchli hamkorlar reytingi Belorus Savdo-sanoat palatasining 2019-yil 30-dekabrdagi 91-sonli qarori bilan tashkil etilgan.

Reyestrga kirish shartlari quydagicha:

- kerakli hujjatlarni taqdim etilganligi, a'zolik va kirish badallarining to'langanligi;
- tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotganiga kamida 3 yil to'lgan bo'lishi;
- to'liq shakllangan ustav fondiga ega bo'lishi;
- qayta tashkil etish, tugatish yoki bankrotlik holatida bo'lmasligi;
- davlatga to'linishi kerak bo'lgan soliq, yig'imlar va boshqa to'lovlardan qarzdorligi bo'lmasligi;
- reyestrga kirish yuzasidan berilgan arizani ko'rib chiqish muddati 30 kunni tashkil etadi.
- reyestrga kiritilgan tadbirkorlar 2 yil davomida mazkur reyestrda bo'ladi.

Reyestrda chiqish asoslari esa:

- sertifikat amal qilish muddatini tugaganligi;
- tadbirkorlik subyektini bankrotligi yoki tugatilganligi;
- tadbirkorlik subyekti tomonidan noto'g'ri va sohtalash-tirilgan ma'lumotlarni taqdim etilganligi;
- nizom talablariga rioya qilinmaganligidir.

Bizda esa Savdo-sanoat palatasi, Soliq qo'mitasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakilning 2024-yil 1-fevraldan boshlab qonunchilik talablariga rioya etgan holda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarini aniqlash va qo'shimcha rag'batlantirishni nazarda tutuvchi tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etildi.

a) reyting doirasida tadbirkorlik subyektlari quyidagi toifalarga ajratiladi:

"AAA", "AA" va "A" toifalar – yuqori barqarorlik reytingi;

"VVV", "VV" va "V" toifalar – o'rta barqarorlik reytingi;

"SSS", "SS" va "S" toifalar – qoniqarli barqarorlik reytingi;



- “D” toifa – quyi barqarorlik reytingi;
- reyting Soliq qo'mitasining “Tadbirkorlarning barqarorlik reytingi” elektron platformasida (keyingi o'rinalarda – platforma) idoralalararo axborot almashinuvi vositasida avtomatik tarzda (onlayn) shakllantiriladi va Savdo-sanoat palatasining rasmiy veb-saytida e'lon qilib boriladi;
 - yuqori barqarorlik reytingidagi tadbirkorlik subyektlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha jamoatchilik kengashi taklifiga asosan har yili 20-avgust Tadbirkorlar kuni arafasida taqdirlash uchun davlat mukofotlari hamda “Fao'l tadbirkor” ko'krak nishoniga tavsiya etiladi.

Bundan tashqari, yuqori barqarorlik reytingidagi tadbirkorlik subyektlari uchun quyidagi rag'batlantirish choralari joriy etildi:



- “AAA” toifadagi tadbirkorlik subyektlari faoliyatida soliq tekshiruvlari o'tkazilmaydi (jinoi ishlar doirasida o'tkaziladigan tekshiruvlar bundan mustasno), shuningdek, ushbu toifadagi tadbirkorlik subyektlariga qo'shilgan qiymat solig'i summasi o'rnini qoplash (qaytarish) bir kun muddatda tekshiruvlarsiz amalga oshiriladi;
- 4 va 5-toifadagi tumanlarda faoliyat yuritayotgan “AA” va undan yuqori toifadagi tadbirkorlik subyektlariga bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan sotilgan davlat aktivlari va qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalari bo'yicha dastlabki to'lov summasi 35 foizdan kam bo'lgan hollarda qolgan summaga Markaziy bankning asosiy stavkasi miqdorida yillik foizlar hisoblanmaydi hamda bo'lib-bo'lib to'lash muddati miqdoridan qat'i nazar, 7 yil (teng ulushlarda) etib belgilanadi;
- “A” va undan yuqori toifadagi tadbirkorlik subyektlariga:
 - soliqlar bo'yicha (qo'shilgan qiymat solig'i bundan mustasno) mavjud ortiqcha to'lov summasini qaytarish uchun kun muddatda amalga oshiriladi. Tovarlarni import qilishda va tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishda to'lanadigan qo'shilgan qiymat solig'i summalarini o'zaro hisobga olish tartibi tatbiq etiladi.



1-rasm: Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini aniqlash sxemasi¹

Mazkur qarorning 4-bandida nazarda tutilgan rag'batlantirish choralari davlat korxonalari hamda ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq miqdorda davlat ulushi mavjud bo'lgan yuridik shaxslarga nisbatan tatbiq etilmaydi. 2024-yil 1-apreldan boshlab tadbirkorlik subyektlariga subsidiya, imtiyoz va preferensiylar ularning reyting darajasidan kelib chiqqan holda joriy etildi.

¹ Soliq qo'mitas ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

2-rasm: Barqarorlik reytingi va reyting ballarini oshirish ko'rsatkichi²

3-rasm: Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish orqali soliq bazasini kengaytirish masalalari

2 Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

4-rasm: Umumiy ovqatlanish korxonalari misolida³

ТАДБИРКОРЛИК СУБЪЕКТЛАРИНИНГ БАРҚАРОРЛИК РЕЙТИНГИ

ЖАМИ ТАДБИРКОРЛИК СУБЪЕКТЛАРИ 568 981 та	ЮҚОРИ РЕЙТИНГ 9 631 та 2%	ЎРТА РЕЙТИНГ 137 062 та 24%	ҚОНИҚАРЛИ ВА КҮЙИ РЕЙТИНГ 422 288 та 74%	Рейтинг кўрсаткичлари	ЮҚОРИ РЕЙТИНГ 9 631 та 2%	ЎРТА РЕЙТИНГ 137 062 та 24%	ҚОНИҚАРЛИ ВА КҮЙИ РЕЙТИНГ 422 288 та 74%
Ишлиб чиқарувчилар 47 427 Жанига нисбатан 8,3%	2 023 та 4,3%	17 916 та 37,3%	27 728 та 58,4%	Банд бўлган ходимлар сони 5 161 987	521 487 та 10,1%	3 592 791 та 69,6%	1 047 709 та 20,3%
Кишлоқ хўжалиги 115 621 Жанига нисбатан 20,3%	328 та 0,3%	18 783 та 16,2%	96 510 та 83,5%	Иш хақи жамғармаси (млрд сўм) 168 444,2	21 540,2 та 12,8%	130 146,5 та 77,3%	16 757,5 та 9,9%
Импорт қўлиувчилар 119 Жанига нисбатан 0,02%	5 та 4,2%	74 та 62,2%	10 та 33,6%	Бир нафарга тўғри келадиган иш хақи суммаси (минг сўм)	2 958,8	2 060,9	731,1
Улгуржи савдо 42 180 Жанига нисбатан 7,4%	1 231 та 2%	15 018 та 35,6%	25 932 та 61,5%	Бир нафарга тўғри келадиган товар айланниси (млрд сўм)	232,0	291,7	194,6
Чакана савдо 236 123 Жанига нисбатан 41,4%	4784 та 2%	68 997 та 29,2%	162 342 та 68,8%	Экспорт ҳажми (млн доллар) 9 799,8	881,7	7 345,5	1 572,6
Қурилиши корхоналари 21 093 Жанига нисбатан 3,7%	416 та 1%	6 311 та 29,9%	14 366 та 68,2%	Тўланган солиқлар суммаси (млрд сўм) 136 587	8 577,5	110 907	17 102,5
Бошқалар 106417 Жанига нисбатан 18,7%	844 та 0,8%	10 203 та 9,6%	95 370 та 89,6%	Фойдаси (млрд сўм) 31 089,5	631	30 235,1	223,4

5-rasm: Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi tendensiyasi⁴


Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-yanvardagi "Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini aniqlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 55-sonli qarori tasdiqlandi.

3 Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

4 Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.




БАРҚАРОЛИК РЕЙТИНГИ ВА РЕЙТИНГ БАЛЛАРИНИ ОШИРИШ КҮРСАТМАСЫ

6-rasm: Barqarorlik reytingi va reyting ballarini oshirish ko'rsatma ma'lumoti⁵

Mazkur qaror bilan qonunchilik talablariga rioya etgan holda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarini aniqlash va rag'batlantirishni nazarda tutuvchi tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi joriy etilgанин hamda reyting Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasining "Tadbirkorlarning barqarorlik reytingi" elektron platformasida idoralalararo axborot almashinuvi vositasida avtomatik tarzda shakllantirilishi va Savdosanoat palatasining rasmiy veb-saytida e'lon qilib borilishi belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilindi. Bundan tashqari qarorning 2-bandida reytingni shakllantirish, tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini baholash mezonlari, davriyiligi va metodikasi hamda reytingni e'lon qilish tartibini nazarda tutuvchi Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini aniqlash tartibi to'g'risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlandi.

ТАДБИРКОРЛИК СУБЬЕКТИНИНГ БАРҚАРОЛИК РЕЙТИНГИННИҢ ТАҲЛИЛИЙ МАЪЛУМОТЛАРИ



7-rasm: Tadbirkorlik subyektining barqarorlik reytingining tahliliy ma'lumotlari

5 Soliq qo'mitasini ma'lumotlari asosida tayyorlangan.



Asta-sekin, insofli tadbirkorlar uchun imtiyozlar ro'yxati kengayadi. Kelgusida, shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish uchun yaxlitlik reytingini asos sifatida tadbirkorlik sohasini tartibga solishga mas'ul bo'lgan boshqa vazirlik va idoralar ham qo'llashi rejalashtirilgan.

Tadbirkorlik subyektlarining yaxlitlik reytingi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan dasturiy mahsulot asosida avtomatik tarzda shakllantiriladi.

Reyting tadbirkorlik subyektlining soliq qonunchiligi talablariga rivoja etishi, moliyaviy barqarorlik va tadbirkorlik tajribasining umumiy natijalarini o'z ichiga olgan mezonlar asosida 100 balllik reyting tizimi bo'yicha tuziladi. Shuningdek, ushbu reyting tadbirkorlik subyektlariga o'zlarining halolligini baholash va soliq organlari ularning faoliyatini qanday baholayotganini bilish, shuningdek, kontragentlari haqida ma'lumot olish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridaqilardan kelib chiqib, yashirin iqtisodiyotni qisqartirishda tegishli vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda ishlarni tashkil etish choralarini ko'rish yuzasidan quydagi takliflarni berishimiz mumkin. Xalqaro moliya institutlari hamkorligida "Soliq xavflarini boshqarish" (CRM) tizimini joriy qilish. Teng raqobat muhitini yaratish va soliq to'lashdan bo'yin tovslash holatlarining oldini olish chora-tadbirlarini davom ettirish, shu jumladan soliq to'lamaslik xavfi yuqori bo'lgan soliq to'lovchilari uchun qo'shimcha cheklovlar o'rnatishtiz tizimini joriy qilish kerak.

Adabiyotlar/Literatura/Reference:

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi- Toshkent: G'afur G'ulom nashriyot uyi 2020.- 640 b.
2. Аронов А. ва Кашин В. (2007) Налоги и налогообложение М.: Магистр.
3. Байбородина В.Г. (2010) Налоги и налогообложение: учебное пособие / Хабаровск: РИЦ ХГАЭП, 108 с.
4. Богатырева Е.Н. (2014) Теоретические детерминанты налоговых реформ. ISSN 2221-7347 Экономика и право.
5. Дементьевна Н.М. (1689) налоговая политика государства. https://nsuem.ru/science/publications/science_notes/issue.php?ELEMENT_ID=1689.
6. Дж.М.Кейнс (1993) Общая теория занятости, процента и денег. – М.:
7. Жўраев А., Сафаров Ф. (2005) Солик назарияси. Ўқув қўлланма. –Т.: "Iqtisod-moliya", 48-бет.
8. Карп М.В. (2001) Налоговый менеджмент: Учебник для вузов. – М.: Юнити-дана, – 39 с.
9. Кенэ (1960) Избранные экономические произведения.-М.Соцэкгз.;
10. Майбуров И.А. (2007) Налоги и налогообложение: учебник для студентов вузов, обучающихся по специальностям; под ред. И.А.Майбурова. –М.: юнити-дана, -655с.).
11. Normurzayev, U. (2024). O'zbekistonda soliq siyosatini takomillashtirishda hududlararo soliq inspeksiyasi o'rni va ahamiyati. Iqtisodiy Taraqqiyot va Tahlil, 2(4), 457–467. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss4-pp457-467>
12. U Normurzayev O'zbekiston Respublikasining 2024-yilgi soliq qonunchilik hujjatlariга kiritilgan asosiy o'zgarish va soliq imtiyozlari berish tartibini takomillashtirish masalalari - file:///C:/Users/User/Downloads/PDF_Normurzayev+Umid+Xolmurzayevich_Jurnal-1-2024%20(1).

Yashi

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.

